



**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI ISHLAB  
CHIQUISH VA KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON  
TIZIMI**

Loyiha

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAҲКАМАСИ ҚАРОПИ**  
**Istirohat bog‘lari faoliyati va boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida**  
**ID-84377 (V-1)**

Loyiha

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
qarori**

**Istirohat bog‘lari faoliyati va boshqaruv tizimini  
tubdan takomillashtirish to‘g‘risida**

Respublikadagi istirohat bog‘lari faoliyatini yanada yaxshilash va aholining dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratish, ularda o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar imkoniyatlarini kengaytirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ular faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 24-martdagi PQ–102-son qarorida belgilangan vazifalarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi hamda mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda davlat ixtiyoridagi istirohat bog‘lari xatlovdan o‘tkazilganligi va ular faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida davlat muassasasi shaklida “Istirohat bog‘larini boshqarish direksiyalari” (keyingi o‘rinlarda – Direksiyalar)ni tashkil etish va davlat istirohat bog‘larini operativ boshqaruv huquqida hududlar bo‘yicha Direksiyalarga o‘tkazib berish;

Direksiyalarni saqlash va istirohat bog‘larini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar savdo, pullik xizmatlar, obyektlarni ijaraga berish hisobidan tushadigan tushumlar va mahalliy budjetlar daromadlarining oshirib bajarilgan qismi hisobidan hokimliklar ixtiyorida qoladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirish;

istirohat bog‘lari hududidagi davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlar va attraksionlar o‘rnatish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi tomonidan “E-auksion” elektron

savdo platformasi orqali amalga oshirish;

istirohat bogʻlari hududidagi attraksionlardan foydalanishga faqat Togʻ-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining tegishli xulosasi asosida ruxsat etish;

istirohat bogʻlarida umumiy maydonning 30 foizdan kam boʻlmagan qismida yashil maydon tashkil etish, attraksionlar joylashtiriladigan hududlarni alohida ajratish, elektron toʻlov va nazorat tizimini joriy etish.

2. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida davlat muassasasi shaklida “Istirohat bogʻlarini boshqarish direksiyasi” (keyingi oʻrinlarda – Direksiya) tashkil etilsin.

3. Direksiyalarga operativ boshqaruv huquqi asosida oʻtkaziladigan davlat istirohat bogʻlari roʻyxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari **bir oy muddatda:**

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda hududlardagi istirohat bogʻlari soni, ularning toifasi va hududlaridan kelib chiqqan holda Direksiyalarning tashkiliy tuzilmalarini va shtatlar jadvalini tasdiqlanishini;

Direksiyalar Nizomlarini tasdiqlanishini va belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazilishini;

ushbu qarorning ilovasiga muvofiq davlat istirohat bogʻlarini tegishli Direksiyalar balansiga qabul qilib olinishini taʼminlasin.

Bunda, Direksiyalarga oʻtkaziladigan istirohat bogʻlarini kadastr hujjatlari toʻlovlarsiz rasmiylashtiriladi.

5. Direksiyalarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

istirohat bogʻlari faoliyatini rivojlantirish, ularda aholining dam olishi uchun zarur infratuzilmani shakllantirish va xizmatlar koʻrsatilishini yoʻlga qoʻyish;

velosiped yoʻlakchalari, bolalar attraksionlari va oilaviy dam olish uchun boshqa obyektlarni oʻz ichiga olgan dam olish zonalarini tashkil etish;

landshaft dizaynining zamonaviy namunalarini qoʻllash asosida hududlarni koʻkalamzorlashtirish, alohida eko va yashil zonalar barpo etish;

aholi barcha qatlamlarining madaniy dam olish xizmatlaridan foydalanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

davlat-xususiy sheriklik asosida berilgan istirohat bogʻlarida xususiy sheriklar tomonidan davlat-xususiy sheriklik bitimi shartlarini bajarilishini nazorat qilish;

istirohat bogʻlari hududida aniqlangan noqonuniy qurilmalar boʻyicha tegishli davlat organlari va huquq-tartibot organlarini xabardor qilish hamda ular bilan birgalikda uni bartaraf etish choralarini koʻrish;

xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida istirohat bogʻlari faoliyatini yangi bosqichiga olib chiqishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

6. Belgilansinki:

a) Direksiyalarni saqlash va istirohat bogʻlarini rivojlantirish bilan bogʻliq xarajatlar (davlat-

xususiy sheriklik asosida beriladigan istirohat bog‘laridan tashqari) savdo, pullik xizmatlar, obyektlarni ijaraga berish hisobidan tushadigan tushumlar va mahalliy budjetlar daromadlarining oshirib bajarilgan qismi hisobidan hokimliklar ixtiyorida qoladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi;

b) istirohat bog‘lari hududidagi attraksionlardan foydalanishga faqat Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining tegishli xulosasi asosida ruxsat etiladi;

d) istirohat bog‘lari hududidagi davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlar va attraksionlar o‘rnatish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi (keyingi o‘rinlarda – Ijara markazi) tomonidan “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi;

bunda, istirohat bog‘lari hududidagi davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlar (moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari bundan mustasno) va attraksionlar o‘rnatish uchun yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushgan mablag‘larning 10 foizi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markaziga, qolgan qismi – elektron savdo platformasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin Direksiyalarga yo‘naltiriladi;

e) istirohat bog‘lari hududidagi davlat mulki bo‘lgan bino-inshootlar va yer uchastkalarini tadbirkorlik subyektlariga savdo va xizmat ko‘rsatish (konsert, tomosha, madaniy-ma‘rifiy va ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish) uchun qisqa muddatga (10 kungacha) ijaraga berish Direksiyalar tomonidan Ijara markazi va ijaraga oluvchi o‘rtasida davlat mulki uchun belgilangan ijara to‘lovi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

7. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq **2024-yil 1-yanvardan** bosqichma-bosqich istirohat bog‘larida:

umumiy maydonining 30 foizdan kam bo‘lmagan qismida yashil maydon tashkil etishi;

umumiy ovqatlanish joylari umumiy maydonining 15 foizdan ortiq bo‘lmasligi;

attraksionlar alohida hududda joylashtirilishi va alohida dam olish hududlari (sokin hududlar) bo‘lishi;

savdo va xizmatlar uchun to‘lovlarni naqd pulsiz elektron to‘lov tizimini joriy etish orqali yagona to‘lov kartalarining amal qilishi;

tashrif buyuruvchilar sonidan kelib chiqqan holda tibbiyot punkti, hojatxonalar, ona va bola xonasi, namozxonalar, ma‘naviyat va ma‘rifat xonasi tashkil etilishi;

yong‘in xavfsizligi talablari (maxsus avtotransport vositalari, o‘t o‘chirish, tez yordam va boshqa avtotransport vositalari harakati uchun alohida yo‘laklar ajratilishi, evakuatsion kirish-chiqish joylari bo‘lishi) uchun zarur sharoitlar yaratilishi;

elektr energiyasi uzluksizligini ta‘minlash, jumladan muqobil energiya manbalari va vositalari (dizel generatorlar, quyosh batareyalari va boshqalar) o‘rnatilishi;

bog‘ xavfsizligini ta‘minlash maqsadida hudud bo‘ylab videokuzatuv uskunalarining o‘rnatilishi, bunda, kirish-chiqish joylarida yuzdan taniy oladigan, “Xavfsiz shahar” dasturiga ulangan maxsus videokameralar o‘rnatilishi;

zamonaviy avtoturargohlar tashkil etilishi lozim.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari:

samarasiz faoliyat ko‘rsatayotgan deb topilgan istirohat bog‘larini rivojlantirish, jumladan

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish;

istirohat bog'lari hududidagi noqonuniy qurilmalarni belgilangan tartibda bartaraf etish;

zamonaviy avtoturargohlarni tashkil etish;

tashrif buyuruvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida istirohat bog'i hududini qamrab oluvchi videokuzatuv tizimini o'rnatish va uni "Xavfsiz shahar" dasturiga integratsiya qilish choralarini ko'rsin.

9. Hududlardagi davlat istirohat bog'larini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va ularni rivojlantirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari mas'ul hisoblanadi.

Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**

**A. Aripov**

Vazirlar Mahkamasining

2023-yil \_\_\_ -  
\_\_\_\_\_dagi

\_\_\_-son qaroriga

ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi  
“Istirohat bog‘larini boshqarish direksiyalari” davlat muassasalari balansiga o‘tkaziladigan istirohat bog‘lari**

**RO‘YHATI**

№		Obyektning nomlanishi	Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)	Shahar, tuman	Egallagan maydoni, ga	Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)	Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)
A	B	1	2	3	5	7	8
1.	1.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Qorao‘zak tumani	5,0	Qorao‘zak tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
2.	2.	Madaniy dam olish bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Qo‘ng‘irot tumani	2,5	Qo‘ng‘irot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
3.	3.	“Yedige” istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus tumani	7,3	Nukus tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
4.	4.	Yashil xiyobon	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus tumani	2,6	Nukus tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
5.	5.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Taxiatosh tumani	5,0	Taxiatosh tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
6.	6.	“Yoshlik” istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	To‘rtko‘l tumani	2,8	To‘rtko‘l tumani hokimligi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

№		Obyektning nomlanishi	Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)	Shahar, tuman	Egallagan maydoni, ga	Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)	Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)
7.	7.	“Turan” istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xo‘jayli tumani	7,1	Xo‘jayli tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
8.	8.	“Jaloliddin Manguberdi”	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Ellikqal‘a tumani	27,9	Ellikqal‘a tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
9.	9.	“Istiqlol Nukus” istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus shahri	13,3	“Istiqlol Nukus” bolalar dam olish markazi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
10.	10.	“Amir Temur” istirohat bog‘i	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Nukus shahri	7,1	Nukus shahri Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
11.	1.	“A. Navoiy” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Andijon shahar	11,0	Andijon shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
12.	2.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Asaka tumani	8,3	Asaka tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
13.	3.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Baliqchi tumani	3,6	Baliqchi tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
14.	4.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Jalaquduq tumani	2,5	Jalaquduq tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
15.	5.	Marxamat tumani “Onalar va bolalar” madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Marhamat tumani	1,67	Marhamat tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
16.	6.	“A.Beruniy” nomli madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Shahrixon tumani	3	Shahrixon tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
17.	7.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Qo‘rg‘ontepa tumani	4,5	Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
18.	8.	“A. Navoiy” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Xonobod shahar	18,1	Xonobod shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
19.	9.	“Z.M.Bobur” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Xonobod shahar	63,0	Xonobod shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
20.	10.	“Eko park” nomli madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Andijon shahar	4,0	Andijon shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
21.	11.	“Cho‘lpon” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Andijon shahar	2,7	Andijon shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
22.	12.	“Nodirabegim” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Andijon shahar	16,1	Andijon shahar hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
23.	13.	“Yoshlar” madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Andijon tumani	0,5	Andijon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Andijon viloyati hokimligi
24.	14.	“Yoshlar” madaniyat va istirohat bog‘i	Andijon viloyati	Buloqboshi tumani	0,9	Buloqboshi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Andijon viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>
25.	15. "Poytug'" madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Izboskan tumani	3,4	Izboskan tumani Obodonlashtirish bo'limi	Andijon viloyati hokimligi
26.	16. Madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Paxtaobod tumani	1,8	Paxtaobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Andijon viloyati hokimligi
27.	17. "Bolalar sayilgohi"	Andijon viloyati	Ulug'nor tumani	0,6	Ulug'nor tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
28.	18. "Nargiz" madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Xo'jaobod tuman	3,1	Xo'jaobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Andijon viloyati hokimligi
29.	19. Madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Qorasuv shahri	2,2	Qo'rg'ontepa tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
30.	20. "Bolalar" madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Andijon shahar	3,9	Andijon viloyati Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi	Maktabgacha va maktab vazirligi
31.	21. "Sh.Sayfutdinov" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Izboskan tumani	4,7	Izboskan tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
32.	22. "Mehammad Yusuf" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Marhamat tumani	8,9	Marhamat tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
33.	23. "Oltin sohil" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Andijon viloyati	Oltinko'l tumani	3,9	Oltinko'l tumani hokimligi	Andijon viloyati hokimligi
34.	1. "Somoniyalar" madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	24,5	Buxoro shahar hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi
35.	2. "Temir yo'lchi" istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Kogon shahar	3,7	Kogon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Buxoro viloyati hokimligi
36.	3. Madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Buxoro tumani	11,4	Buxoro tumani hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi
37.	4. "Tursun Sharipov" nomidagi Nurafshon madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	G'ijduvon tumani	19,1	Madaniyat va turizm bo'limi	Madaniyat va turizm vazirligi
38.	5. "Maxmud Tarobiy vatanparvarlik" bog'i	Buxoro viloyati	Jondor tumani	4,0	Jondor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Buxoro viloyati hokimligi
39.	6. Madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Shofirkon tumani	4,7	Shofirkon tumani hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi
40.	7. Madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Shofirkon tumani	3,0	Shofirkon tumani hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi
41.	8. Xotira va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Romitan tumani	0,2	Romitan tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Buxoro viloyati hokimligi
42.	9. Madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Romitan tumani	4,3	Romitan tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Buxoro viloyati hokimligi
43.	10. Yoshlar madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Qorako'l tumani	2,9	Qorako'l tumani hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi
44.	11. "Humo" madaniyat va istirohat bog'i	Buxoro viloyati	Olot tumani	6,5	Olot tumani hokimligi	Buxoro viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>
45.	1. Bolalar istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Zafarobod tumani	0,5	Zafarobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Jizzax viloyati hokimligi
46.	2. "Bolalar o'yingohi" maydonchasi	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani	0,5	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
47.	3. "Umid" bolalar madaniyat va istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Zarbdor tumani	4,5	Zarbdor tumani hokimligi	Jizzax viloyati hokimligi
48.	4. "Mo'jiza" madaniyat va istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Paxtakor tumani	3,7	Paxtakor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Jizzax viloyati hokimligi
49.	5. Bolalar istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Mirzacho'l tumani	5,0	Mirzacho'l tumani hokimligi	Jizzax viloyati hokimligi
50.	6. Bolalar istirohat bog'i (Xotira bog'i va Motamsaro ona haykali)	Jizzax viloyati	Do'stlik tumani	2,3	Do'stlik tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Jizzax viloyati hokimligi
51.	7. "Istiqlol" bolalar istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	21,5	Jizzax shahar xokimligi	Jizzax viloyati hokimligi
52.	8. Madaniyat va istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Forish tumani	8,7	Forish tumani hokimligi	Jizzax viloyati hokimligi
53.	9. Bolalar istirohat bog'i	Jizzax viloyati	Yangiobod tumani	1,3	Yangiobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Jizzax viloyati hokimligi
54.	1. "Istiqlol" madaniyat va istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	G'uzor tumani	26,0	G'uzor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
55.	2. Istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	G'uzor tumani	2,7	G'uzor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
56.	3. Madaniyat va istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Dexqonobod tumani	4,3	Dehqonobod tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
57.	4. "A. Navoiy" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Kasbi tumani	2,0	Kasbi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
58.	5. Istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani	1,2	Kitob tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
59.	6. Madaniyat va istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani	4,8	Kitob tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
60.	7. Istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Qamashi tumani	2,3	Qamashi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
61.	8. "Beshkent" istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Qarshi tumani	3,8	Qarshi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
62.	9. "Vatanparvarlar" bog'i	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	5,9	Qarshi hududiy uy-joylardan foydalanish qismi	Mudofaa vazirligi
63.	10. "A. Navoiy" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	19,5	Qarshi shahar hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi



<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>
64.	11. “Nuriston” istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Nishon tumani	10,9	Nishon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
65.	12. “Istiqloq” istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Nishon tumani	7,8	Nishon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
66.	13. Istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Nishon tumani	3,7	Nishon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
67.	14. “Chiroqchi” madaniyat va istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Chiroqchi tumani	2,5	Chiroqchi tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
68.	15. “Yoshlik” madaniyat va istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Yakkabog‘ tumani	1,3	Yakkabog‘ tumani Madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
69.	16. Istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Yakkabog‘ tumani	10,0	Yakkabog‘ tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
70.	17. Madaniyat va istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Mirishkor tumani	15,7	Mirishkor tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
71.	18. Madaniyat va istirohat bog‘i	Qashqadaryo viloyati	Mirishkor tumani	10,3	Mirishkor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
72.	1. “Alisher Navoiy” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	33,8	Navoiy shahar hokimligi	Navoiy viloyat hokimligi
73.	2. “Yangi avlod” istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Karmana tumani	2,2	Karmana tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
74.	3. “Amir Temur” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani	13,0	Xatirchi tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
75.	4. Madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Navbahor tumani	3,0	Navbahor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Navoiy viloyat hokimligi
76.	5. Madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Nurota tuman	2,2	Nurota tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Navoiy viloyat hokimligi
77.	6. Madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Qiziltepa tumani	7,7	Qiziltepa tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Navoiy viloyat hokimligi
78.	7. “Orzu” istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	0,2	Uchquduq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Navoiy viloyat hokimligi
79.	8. “Oltin ko‘l” istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	5,0	Uchquduq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Navoiy viloyat hokimligi
80.	9. Madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Zarafshon shahar	3,4	Zarafshon shahar hokimligi	Navoiy viloyat hokimligi
81.	10. Madaniyat va istirohat bog‘i	Navoiy viloyati	Konimex tumani	2,0	Konimex tumani hokimligi (Konimex tuman o‘rmon xo‘jaligi bo‘limi)	Navoiy viloyat hokimligi
82.	1. “Z.M.Bobur“ nomli madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Namangan shahri	16,1	Namangan shahar hokimligi	Namangan viloyat hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>	
83.	2.	“Yetti buloq” istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Namangan tumani	4,1	Kommunal-xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	Qurilish uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi
84.	3.	“Furqat” nomli madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Chortoq tumani	7,1	Chortoq tumani hokimligi	Namangan viloyat hokimligi
85.	4.	“Do‘stlik” madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Mingbuloq tumani	2,9	Mingbuloq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Namangan viloyat hokimligi
86.	5.	“Mavlono Lutfillo” madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Chust tumani	6,9	Chust tumani hokimligi (DXSH “Chust eko Park” MChJga berilgan)	Namangan viloyat hokimligi
87.	6.	“Maxdumi A‘zam” madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Kosonsoy tumani	4,1	Kosonsoy tumani hokimligi	Namangan viloyat hokimligi
88.	7.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Pop tumani	2,3	Pop tumani hokimligi	Namangan viloyat hokimligi
89.	8.	Yoshlar bog‘i	Namangan viloyati	Davlatobod tumani	1,2	O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyati boshqarmasi	O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi
90.	9.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Namangan viloyati	Yangiqo‘rg‘on tumani	0,6	Yangiqo‘rg‘on tumani hokimligi	Namangan viloyat hokimligi
91.	1.	“Alisher Navoiy” nomidagi markaziy istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Samarqand shahri	12,6	Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
92.	2.	“Yoshlik” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Samarqand shahri	5,4	Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
93.	3.	“Zarafshon” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Samarqand shahri	1,0	Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
94.	4.	“Yoshlar” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Narpay tumani	2,5	Narpay tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
95.	5.	“Ziyovuddin” yoshlar bog‘i	Samarqand viloyati	Paxtachi tumani	2,4	Paxtachi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
96.	6.	“Oqdaryo” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Oqdaryo tumani	5,6	Oqdaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
97.	7.	“M.Jo‘rayev” nomidagi markaziy istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Ishtixon tumani	3,5	Ishtixon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
98.	8.	“Yoshlar bog‘i” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Pastdarg‘om tumani	3,1	Pastdarg‘om tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
99.	9.	Istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Jomboy tumani	1,2	Jomboy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
100.	10.	“A. Navoiy” nomli madaniyat va istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Kattaqo‘rg‘on shahri	5,2	Kattaqo‘rg‘on shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>	
101.	11.	“Yoshlik” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Kattaqo‘rg‘on tumani	2,2	Kattaqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
102.	12.	Chelak “Yoshlar” madaniyat va istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Payariq tumani	2,9	Payariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
103.	13.	Payariq “Yoshlar” madaniyat va istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Payariq tuman	4,4	Payariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
104.	14.	Madaniyat va aholi dam olish markazi	Samarqand viloyati	Bulung‘ur tumani	3,1	Bulung‘ur tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
105.	15.	Yoshlar istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Toyloq tumani	1,4	Toyloq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
106.	16.	“Urgut” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Urgut tumani	6,0	Urgut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
107.	17.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Nurobod tumani	6,3	Nurobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
108.	18.	“Madaniyat va yoshlar” istirohat bog‘i	Samarqand viloyati	Qo‘shrabot tumani	3,3	Qo‘shrabot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Samarqand viloyati hokimligi
109.	1.	Istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	2,4	Boyovut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
110.	2.	Istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	0,5	Boyovut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
111.	3.	Istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	2,8	Boyovut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
112.	4.	“U. Yusupov” nomli istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	1,3	Boyovut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
113.	5.	Istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani	7,5	Boyovut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
114.	6.	“Orom” nomli istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Shirin shahri	3,7	Shirin shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Sirdaryo viloyati hokimligi
115.	7.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Sirdaryo viloyati	Guliston shahri	8,18	“Ekonur asleko” MChJ	Sirdaryo viloyati hokimligi
116.	1.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Surxondaryo viloyati	Angor tumani	1,1	Angor tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
117.	2.	“Afrosiyob” milliy bog‘i	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	4,1	Denov tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
118.	3.	Madaniyat va istirohat bog‘i	Surxondaryo viloyati	Denov tumani	4,8	Denov tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>	
119.	4.	Istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Jarqo'rg'on tumani	1,7	Jarqo'rg'on tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
120.	5.	Istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Jarqo'rg'on tumani	1,7	Jarqo'rg'on tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
121.	6.	Istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Qiziriq tumani	10,4	Qiziriq tuman o'rmon xo'jaligi bo'limi	Qishloq xo'jaligi vazirligi
122.	7.	"Navro'z" istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Qumqo'rg'on tumani	6,3	Yoshlar ishlari agentligi Qumqo'rg'on tumani kengashi	Yoshlar siyosati va sport vazirligi
123.	8.	"Shodlik" madaniyat va istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Muzrabot tumani	2,9	Muzrabod tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
124.	9.	"Bolajon" nomli istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	2,8	Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Surxondaryo viloyat hokimligi
125.	10.	"Bobur" nomli istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	5,5	Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Surxondaryo viloyat hokimligi
126.	11.	Madaniyat va istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Termiz tumani	2,8	Termiz tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
127.	12.	"Zaxriddin Muxammad Bobur" istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Sherobod tumani	7,0	Sherobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Surxondaryo viloyat hokimligi
128.	13.	Madaniyat va istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Sherobod tumani	11,1	Sherobod tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
129.	14.	"Charag'on" istirohat bog'i	Surxondaryo viloyati	Sho'rchi tumani	5,0	Sho'rchi tumani hokimligi	Surxondaryo viloyat hokimligi
130.	1.	"A.Navoiy" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent viloyati	Angren shahri	35,2	Angren shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	Toshkent viloyati hokimligi
131.	2.	Madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent viloyati	Bekobod tumani	2,3	Bekobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Toshkent viloyati hokimligi
132.	3.	"Barkamol avlod" bolalar istirohat bog'i	Toshkent viloyati	Bekobod sh	6,3	Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
133.	4.	Yoshlar bog'i	Toshkent viloyati	Bo'ka tumani	2,9	Bo'ka tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
134.	5.	"Bo'ston" yoshlar bog'i	Toshkent viloyati	Bo'ka tumani	1,8	Yoshlar ishlari agentligi Bo'ka tumani kengashi	Toshkent viloyati hokimligi
135.	6.	Istirohat bog'i	Toshkent viloyati	Zangiota tumani	0,9	Zangiota tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>
136.	7. “Do‘stlik” bog‘i	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	0,4	Quyichirchiq tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
137.	8. Xotira maydoni bog‘i	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	0,1	Quyichirchiq tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
138.	9. Istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	2,8	Quyichirchiq tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
139.	10. “Otajonov madaniyat markazi” istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	1,1	Quyichirchiq tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
140.	11. Istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	2,8	Quyichirchiq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Toshkent viloyati hokimligi
141.	12. Istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Oqqo‘rg‘on tumani	0,3	Oqqo‘rg‘on tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
142.	13. Istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Oqqo‘rg‘on tumani	1,8	Oqqo‘rg‘on tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
143.	14. Istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Oqqo‘rg‘on tumani	1,5	Oqqo‘rg‘on tumani madaniyat va turizm bo‘limi	Madaniyat va turizm vazirligi
144.	15. “Xalqlar do‘stligi” istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Olmaliq shahri	1,0	Olmaliq shahar hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
145.	16. “Yoshlar” istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Pskent tumani	1,8	Pskent tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Toshkent viloyati hokimligi
146.	17. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	0,4	Chinoz tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
147.	18. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	1,2	Chinoz tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
148.	19. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Chirchiq shahri	2,3	Chirchiq shahar hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
149.	20. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Chirchiq shahri	1,4	Chirchiq shahar Obodoblashtirish boshqarmasi	Toshkent viloyati hokimligi
150.	21. Yoshlar bog‘i	Toshkent viloyati	Yangiyo‘l tumani	2,7	Yangiyo‘l tumani hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
151.	22. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Yangiyo‘l shahri	0,3	Yangiyo‘l shahar hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
152.	23. Madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Yangiyo‘l shahri	2,5	Yangiyo‘l shahar hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi
153.	24. “Ohangaron” madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent viloyati	Ohangaron shahri	2,9	Ohangaron shahar hokimligi	Toshkent viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>
154.	1. "Al-Farg'oniy" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahri	8,2	Farg'ona shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
155.	2. Yoshlar bog'i	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahri	8,2	Qo'qon shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
156.	3. Nuroniyalar bog'i	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahri	0,8	Qo'qon shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
157.	4. Xudoyorxon o'rdasi	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahri	8,4	Qo'qon shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
158.	5. "Quvasoy yoshlar bog'i" madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Quvasoy shahri	3,2	Quvasoy shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
159.	6. Istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Marg'ilon shahri	2,7	Marg'ilon shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
160.	7. "Erkin Vohidov" madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Marg'ilon shahri	12,7	Marg'ilon shahar hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
161.	8. "Burxoniddin Al-Marg'iloniy Ar-Roshidoni" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Rishton tumani	5,0	Rishton tuman hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
162.	9. "A.Navoiy" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	O'zbekiston tumani	2,6	O'zbekiston tuman hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
163.	10. "A.Navoiy" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Quva tumani	3,7	Quva tuman hokimligi	Farg'ona viloyati hokimligi
164.	11. Istirohat bog'i	Farg'ona viloyati	Dang'ara tumani	3,6	Dang'ara tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Farg'ona viloyati hokimligi
165.	1. "Amir Temur" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Urganch shahri	24,5	"Amir Temur" nomli madaniyat va istirohat bog'i" davlat korxonasi	Xorazm viloyati hokimligi
166.	2. "Nurullaboy" madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Xiva shahri	3,2	"Nurullaboy" madaniyat va istirohat bog'i" davlat unitar korxonasi	Xorazm viloyati hokimligi
167.	3. "Istiqlol" madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani	6,9	Bog'ot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
168.	4. "A.Navoiy" madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	16,3	Gurlan tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
169.	5. "Maxmud Az-Zamaxshariy" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Qo'shko'pir tumani	14,7	Qo'shko'pir tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
170.	6. "G'alaba" istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Urganch tumani	3,5	Urganch tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi

<b>№</b>	<b>Obyektning nomlanishi</b>	<b>Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)</b>	<b>Shahar, tuman</b>	<b>Egallagan maydoni, ga</b>	<b>Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)</b>	<b>Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)</b>	
171.	7.	Xazorasp yoshlar va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Xozarasp tumani	2,3	Xazorasp tumani madaniyat va turizm bo'limi	Madaniyat va turizm vazirligi
172.	8.	"Xojixon Boltayev" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Xonqa tumani	2,7	Xonqa tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
173.	9.	Madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Xiva tumani	6,7	Xiva tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
174.	10.	"Komiljon Otaniyozov" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Shovot tumani	8,9	"Komiljon Otaniyozov" nomli madaniyat va istirohat bog'i direksiyasi" davlat korxonasi	Xorazm viloyati hokimligi
175.	11.	"Mustaqillik" madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani	11,7	Yangiariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
176.	12.	"Razzoq Ollaberganov" nomli xiyabon	Xorazm viloyati	Yangiariq tumani	1,6	Yangiariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
177.	13.	Madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Yangibozor tumani	5,3	Yangibozor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Xorazm viloyati hokimligi
178.	14.	"Munis Al-Xorazmiy" madaniyat va istirohat bog'i	Xorazm viloyati	Tuproqqal'a tumani	13,5	Tuproqqal'a tumani hokimligi	Xorazm viloyati hokimligi
179.	1.	"Yangi O'zbekiston" bog'i	Toshkent shahar	Mirzo Ulug'bek tumani	96,3	"Yangi O'zbekiston bog'i obyektlarini saqlash va ekspluatatsiya qilish direksiyasi"	Madaniyat va turizm vazirligi
180.	2.	"Mirzo Ulug'bek" nomidagi markaziy bog'	Toshkent shahar	Mirzo Ulug'bek tumani	12,9	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
181.	3.	"G'ofur G'ulom" nomidagi istirohat bog'i	Toshkent shahar	Mirzo Ulug'bek tumani	2,2	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
182.	4.	"Furqat" madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent shahar	Mirobod tumani	9,6	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
183.	5.	"Bolajon" istirohat bog'i	Toshkent shahar	Mirobod tumani	2,7	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
184.	6.	"Oymomo" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent shahar	Olmazor tumani	1,7	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
185.	7.	"Abdulla Qodiriy" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent shahar	Olmazor tumani	15,3	"Munitsipal aktivlarni boshqarish markazi" DUK	Toshkent shahar hokimligi
186.	8.	"G'alaba" bog'i	Toshkent shahar	Olmazor tumani	12,6	Mudofaa vazirligi	Mudofaa vazirligi
187.	9.	"Yangi Sergeli" madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent shahar	Sergeli tumani	5,2	Yoshlar ishlari agentligi	Yoshlar siyosati va sport vazirligi
188.	10.	"Bog'ishamol" nomli madaniyat va istirohat bog'i	Toshkent shahar	Uchtepa tumani	3,3	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi

№		Obyektning nomlanishi	Viloyat (obyekt joylashgan hudud nomi)	Shahar, tuman	Egallagan maydoni, ga	Balansda saqlovchi (Mulkdor nomi)	Mansubligi (yuqori turuvchi vazirlik)
189.	11.	“Eko bog‘” madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent shahar	Uchtepa tumani	5,6	Toshkent shahar, madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
190.	12.	“G‘ofur G‘ulom” nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent shahar	Chilonzor tumani	13,9	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
191.	13.	“Alisher Navoiy” nomidagi O‘zbekiston milliy bog‘i	Toshkent shahar	Chilonzor tumani	23,8	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
192.	14.	“Tashkent City” bog‘i	Toshkent shahar	Shayxontohur tumani	18,6	O‘zR VM huzuridagi “Tashkent City” xalqaro ishbiarmonlar markazi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
193.	15.	Botanika bog‘i	Toshkent shahar	Yunusobod tumani	65,4	Fanlar akademiyasi	Fanlar akademiyasi
194.	16.	“Bobur” madaniyat bog‘i	Toshkent shahar	Yakkasaroy tumani	12,3	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
195.	17.	“Do‘stlik” madaniyat va istirohat bog‘i	Toshkent shahar	Yashnobod tumani	2,7	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi
196.	18.	“Ashxobod” sayilgohi	Toshkent shahar	Yashnobod tumani	8,0	Toshkent shahar madaniyat va turizm bosh boshqarmasi	Madaniyat va turizm vazirligi